
MO'L HOSIL SIFATLI AGROTEXNIK TADBIRLARGA BOG'LIQ

Qishloq xo'jaligi sohasidagi bugungi agrotexnik tadbirlar mo'l hosilga zamin yaratadi. Shu bois ham viloyatimizdagi fermerlar, dehqonlar bu borada yaxshi tajribaga ega bo'lishi lozim.

Rishton tumanida 2021 yil hosili uchun puxta zamin yaratish maqsadida kuzgi shudgorlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Unda tumanlardagi sektor rahbarlari, fermer xo'jaliklari, klaster rahbarlari, mexanizatorlar, qishloq xo'jaligiga mas'ul idora va tashkilot vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozarov seminar avvalida yillik paxta rejasi muvaffaqiyatli bajarilgani bilan barchani muborakbod etdi. Bunda albatta, Prezidentimiz tashabbusi bilan paxta yetishtirishda klaster tizimini joriy etilishi o'zining ijobiy samarasini berayotganligini ta'kidladi. Galdagi vazifa esa 2021 yilgi hosilga mas'uliyat bilan yondashish zarurligi va belgilangan agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish, shuningdek, zamonaviy unumdorligi yuqori bo'lgan texnikalardan foydalanish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Seminarda shudgorlash ishlarini sifatli tashkil etishda manfaatdorlik muhim vazifa ekanligi, bitta otryadga 2 ta yuqori unumli haydov traktori, 1 dona lazerli yer tekizlagish, o'g'it sepgich va operatorlarning dam olishlari uchun vagon tashkil etish zarurligi va shu bilan birga yiliga 15 gektar haydov yog'ini bajargan mexanizatorni rag'batlantirib borishga alohida etibor qaratilishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Bugungi mas'uliyatli kunlarda barcha sharoitlar yaratilishi kerak. Xususan, texnikalar zamonaviy bo'lishi va ayni paytda bir mavsumga yetarli talab etilgan ehtiyot qismlar bilan ta'minlanishi, o'g'it va yoqilg'i ta'minoti uzluksizligi, ishchilar munosib tarzda rag'batlantirilishi kerak. Sababi, bu ishlarni amalga oshirish natijasida kelgusi yil hosilining mo'l bo'lishi ta'minlanadi,- dedi viloyat hokimi.

Farg'ona viloyati hokimligi
2020-10-17 07:12:03